

**Fatxullaeva M.G'.**

*Musiqa ta'lifi kafedrasini o'qituvchisi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy musiqa madaniyati, o'zbek musiqa san'atining tarixi, tadrijiy takomili, uning inson hayotida tutgan muhim orni singarilarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining musiqiy madaniyatimizga ko'rsatgan ta'siri xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy musiqa san'ati, ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi, jahon klassik musiqiy sozları, fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro.

Barcha davrlarda ijodiy erkinlik bo'lgan san'atning bosh homiysi davlat hisoblangan, shuning uchun ham ijodiy erkinlik san'at va madaniyat sohasida yetakchi va unga asos soluvchi tamoyilidir.

Milliy madaniyatimizning asosi bo'lgan musiqiy merosimiz: folklor, dostonchilik, maqom san'atining millat ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, boshqacha aytganda, uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va ma'no berish milliy-madaniy taraqqiyotning bir tomoni bo'lsa, jarayonning ikkinchisi esa, yanada ahamiyatli tomoni, milliy madaniyatning yangilanishi, umuminsoniy madaniyatning yangidan-yangi qatlamlarining o'zlashtirilishidir. Busiz madaniyatni, shu jumladan, milliy madaniyatni rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi.

San'at sohasida yangilanish yangi ifoda usullari, janrlarning kirib kelishi, ayni paytda, u yoki bu konkret san'at asarlarining kishilar dunyoqarashi, ma'naviy dunyosining boyishiga ta'siri hamda ijodkorlarning ular ta'sirida yangicha mazmun bilan sug'orilgan musiqa san'ati va madaniyati namunalarini yaratishdek serqirra jarayonlarni ham qamrab oladi. Chunki, "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir".

Musiqa san'ati – milliy qiyofani belgilab beradigan, inson qalbiga ezgu g'oyalar, beg'ubor tuyg'ularni singdiradigan omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz qadimdan yuksak musiqiy salohiyatga ega bo'lganini alohida qayd etish lozim. Misol uchun: Samarqand viloyatining Urgut tumanidan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan musiqa asbobi – nay topilganligi, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning musiqashunoslikka oid qarashlari ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda betakror musiqiy merosimizni chuqur o'rganish, musiqa san'ati va madaniyatini yanada rivojlantirish, uni keng ommaga yetkazish imkonini yaratdi. Bu borada qilinayotgan ishlarning istiqbolli mazmun kasb etishida mamlakatimizning

go'zal hududlaridan biri bo'lgan Shahrisabz zaminida Xalqaro maqom san'ati anjumanining hamda Surxondaryoda o'tkazilayotgan Xalqaro folklor san'ati festivalining ahamiyati beqiyosdir. Zero, mazkur tadbirlar yoshlar iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, shuningdek, musiqa san'atini yanada yuksak pog'onalarga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Milliy musiqa madaniyatdagi yangilanish jarayonlarida turli yo'naliishlarda o'tkaziladigan ijodiy tanlovlар, festivallar, xalqaro ijodiy hamkorlikning o'rni nihoyatda katta. Shu ma'noda 1997 yildan beri o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o'ziga xos ma'no va ahamiyat kash etmoqda. Festival dunyo xalqlarining noyob musiqiy an'analarini yangilanishi, o'zaro boyishiga va, ayni paytda, turli ellardagi yoshlarni ham musiqa san'ati vositasida mushtarak maqsadlar yo'lida yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Zero, "San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi".

Insoniyatning madaniyatini, shu jumladan, musiqa madaniyatini istiqbolini belgilashda folklor, dostonchilik, maqom san'atining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, bugungi kunda insoniyat madaniyatining mavjudligi va istiqbolini musiqasiz tasavvur qilish nihoyatda qiyin.

Folklor xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasi, shu bilan birga folklor qo'shiqlari ham mos ravishda shakllanib, otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallahшиб, mukammallahшиб, tobora an'anaviy়лашиб bizgacha yetib kelgan.

O'zbek folklorshunosligida mehnat qo'shiqlari yetakchi xususiyatga ega. Folklorshunos K.Ochilov mehnat qo'shiqlari dastlab mavsum-marosim xarakteriga ega bo'lganligini, tarixiy taraqqiyot tufayli ular keyinchalik ijtimoiy ma'no, lirk xarakter kasb etganliklarini tasdiqlaydi.

Folklor janridan o'rin olgan o'zbek mehnat qo'shiqlarining qaysi sohasi bo'lmasin, jumladan, dehqonchilik, chorvachilik, kasb-hunar, bog'dorchilik bilan bog'liq bo'lib, bizgacha yetib kelgan namunalarida sevgi kechinmalari, oilaviy-maishiy turmush tashvishlarining badiiy ifodasi yetakchiligin ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar davomida yaratilgan ulkan ma'naviy xazina, namunalarini jahonga mashhur bo'lgan ijod, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lgan milliy hodisadir. Shuningdek, asrlar davomida xalq tarixi, ma'naviy-maishiy turmushi, madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi, ilmiy ta'bir bilan aytganda, o'zbek folklori taqdiridir. Folklor qaysi davrda, qanday bo'lmasin, jamiyatning, kishilarning ma'lum bir ehtiyojlariga javob bermasa, o'z-o'zidan hayot sahnasidan tushib, faqat tarixiy fakt bo'lib qoladi.

O'zbek folklori tarixi va taqdirining ahamiyati shundaki, uning namunalarida barcha arxaik dinlar va islomiy qarashlar doimo o'z ifodasini topib kelgan. Folklor tarixan noestetik qarashlarning estetik hodisalarga, jumladan, diniy tasavvurlarning badiiy tasavvurlarga o'tish maydoni bo'lgan. O'z davri folklorini yaxshi bilgan

Muhammad alayhissalom o‘z diniy, ma’rifiy, axloqiy, estetik qarashlarini targ‘ib qilishda arab xalq og‘zaki ijodi: afsona, rivoyat, maqol va hikmatli so‘z kabi janrlarlardan samarali foydalangan.

Folklor asarlarining turlicha shakllarda bugungi kungacha yashash sabablaridan biri, unda kishilarni jalg etuvchi jihatlari ko‘p. Shulardan biri hozirgi zamon kishilarining tafakkurida eng qadimiy mifologik qarashlardan tortib, eng zamonaviy tushunchalargacha uyg‘unlashib ketganligi, ular (insonlar T.Sh.) tafakkurining ko‘p qatlamliligi mavjudligidir. Folklor tarixiy-ijtimoiy, etnografik-maishiy, badiiy-estetik hodisa bo‘lib, jamiyatning insonlar ongi, ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan qonunlari bo‘lganidek, folklor taqdiri ham tabiiy kechadi. Biz unga faqat ma’lum darajada ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishimiz mumkin.

Folklor asarlarining tarixini an’anaviylik, kelajagi va rivojlanish istiqbolini quyidagi yashash shakllari belgilab beradi:

- arxiv materiallari sifatida, shuningdek, kino ssenariylarda;
- ko‘rik tanlovlari va ommaviy-madaniy bayramlar, teatrlashgan tomoshalarda;
- ommaviy axborot vositalari, gazeta jurnallarda va ilmiy tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

O‘zbek folklor asarlarining to‘planishi va yozib olinishi tarixi haqida so‘z yuritilganda X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarini ko‘rsatishimiz mumkin. Unda muallif shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o‘tmishdagi voqeа-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalarni keltiradi. Shuningdek, XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo‘sinq, rivoyat va afsonalarni yozib olib, o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” asariga kiritadi. Muallif o‘zining mazkur asarada qoshug‘ning izohini she’r, qasida deb ko‘rsatadi.

Mahmud Qoshg‘ariy yiqqan mehnat, urf-odat, mavsumiy va marosim qo‘sishqlari, afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, ularning mazmuni, qo’llanish o‘rni haqidagi ma’lumotlar folklor san’atida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning devonidan joy olgan qo‘sishqlari tabiat va jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan odamiylik, mehnatsevarlik, mardlik va qahramonliklar ulug‘langan.

Musiqa folklorining turli janrlarida boy ma’naviy meros qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o‘zi tuzgan lug‘atda xalq qo‘sishqlaridan misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy o‘zbek folklor asarlarining ilk to‘plovchilari bo‘lgan.

O‘zbek folklorshunosligi maktabi vakillari tomonidan folklor asarlarini to‘plab, arxivlashtirish va ilmiy tafsiflash borasida o‘tgan asrning 20-yillaridan buyon izchil ish olib borilmoqda. Turli yillarda H.Zarifov, M.Afzalov, B.Karimov, M.Alaviya, Z.Husainova, G.Jahongirov, S.Qosimov, M.Murodov, T.Mirzaev, K.Imomov, B.Sarimsaqov kabi olimlar ilmiy safarlarda bo‘lib, o‘zbek folklorining barcha janrlariga oid materiallar toplaganlar.

Milliy musiqa madaniyatining yana bir yo‘nalishi bo‘lgan dostonchilik san’ati mamlakatimizda azaldan shakllanib, rivojlanib bugungi kungacha yetib keldi. Dostonchilik san’ati – xalq og‘zaki poetik ijodidagi qadimiy epik an’ana, nomoddiy madaniy merosning eng yorqin namunalaridan biridir. “Doston” so‘zining yana bir ma’nosи – bu el orasida gapirmoq, kuylamoq, og‘izga tushmoq demakdir.

“Mamlakatimizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Xorazm viloyatlari bilan bir qatorda Surxondaryo, xususan, Sherobod doctonchilik maktabi mintaqamizda ma’lum va mashhur”

Xalq og‘zaki adabiyotida doston eng ahamiyatlidir. Doston qabilaviy tur mush namunasi bo‘lganligi uchun ham qabila hayotining barcha xususiyatlarini ko‘rsatib beradigan janrlardan biri. Biz o‘zbek dostonlari tahlil qiladigan bo‘lsak, unda o‘zbek urug‘lari qahramonlarining tabiatlari, ularning qabila tur mushdagi o‘rni va ahamiyati, o‘z davridagi ijtimoiy tur mushning butun borlig‘i bilan yaqindan tanishish mumkin. Jumladan, o‘z davrining mashhur olimlaridan biri G‘ozi Olim Yunusov o‘zbeklarning mashhur oqinlari Hamroqul baxshi, Fozil jirov Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Alpomish” dostonini dalil qilib keltirish mumkin.

Professor T.Mirzaev ma’lumotiga ko‘ra, Bulung‘ir dostonchiligida qahramonlik dostonlarini ijro etish ko‘proq amalga oshgan. Bu dostonchilik matabning so‘ngi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Malika ayyor” kabi dostonlar yozib olingan. O‘z davrida G‘ozi Olim Yunusov tomonidan Fozil jirov Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Alpomish” dostonidan T.Mirzaev yozib olgan “Alpomish” dostoni o‘zining mukammalligi bilan ajralib turadi va mazkur asar butun dunyo folklorshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Dostonlarni baxshilar kuylaydilar. Baxshilar o‘z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o‘rgangan san’akorlardir. O‘zbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro uslubi dombira jo‘rligida bo‘g‘izda doston aytildi. Baxshining bo‘g‘izda ichdan kuch bilan ovoz chiqarib aytishi juda qadimdan shimol xalqlari afsungarlari – shamanlarda mavjud bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek baxshilarining uzoq o‘tmish zamonlar bilan bog‘liqlik holatlari borligini anglash mumkin.

O‘zbek dostonchiligi ijro usuliga ko‘ra xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy, H.T.Zaripov, M.Saidov, T.Mirzaev, B.Sarimsaqqovlarning olib borgan ilmiy o‘rganish natijalariga ko‘ra dostonlar mazmunan maqol, ertak, qo‘sinq singari turlarga bo‘linadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi qo‘sinq, ertak janrlarida tarixiy voqealar o‘z ifodasini topgani kabi dostonlarda ham o‘tmish muhrlangan asarlar bor. Bunday asarlar folklorshunoslikda tarixiy dostonlar deb yuritiladi

Baxshichilik o‘zbek folklorining yuksak professional san’at turi hisoblanadi. Xalq baxshilari yurtimizning barcha hududlaridan yetishib chiqqan bo‘lib, keyingi avlod baxshilari bergen og‘zaki ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr va XX asr boshlarida

dostonchilikning eng gullagan, ijro usullari g'oyatda takomiliga yetgan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarlarida 200 ga yaqin xalq dostoni bo'lib, ularni mashhur so'z san'ati ustalari kuylab kelganlar.

O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrabavaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirishdan iborat ulkan maqsad uning davomiyligini, sehrli va jozibador ijrosining yana uzoq yillar saqlanib qolishini kafolatlaydi.

Milliy musiqa madaniyatining mumtoz yo'nalishlaridan biri bo'lgan Maqom san'atidir. Maqomlar o'zbek musiqa merosida juda katta o'rinn tutadi. Ular qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan o'zbek xalqqi professional musiqa san'atining yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Maqomlar xalq musiqasi san'ati ta'sirida folklor rivojiga va umuman o'tmishning musiqiy merosiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham maqom san'atini nomoddiy merosi sifatida ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy maqom san'ati nomoddiy madaniy meros sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilganligi mazkur san'at turining umri uzayishiga olib keldi. Bu esa, "Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur"ligini ko'rsatadi.

Sharq xalqlarining musiqiy boyligi bo'lgan maqom, mug'om, navba, raga, kyui singari musiqiy ijrochilikning aniq turkumlari turli davrlarda turlicha ko'rinish va yo'nalishlarda ijro etilib kelindi va rivojlandi.

Maqom – yetuk va o'ziga xos og'zaki professional musiqa turkumi janri bo'lib, o'rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan. Maqomlar cholg'u va ashula yo'llari hamda yirik turkum sifatida yuzaga kelib, o'ziga xos rivojlangan kuylari, murakkab shaklshamoyili, mukammal ijro uslubi bilan ajralib turadi.

"Maqom" atamasi VIII-X asrlarda Uqlidis, Arastu singari yunon olimlarining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlarini arab tiliga tarjima qilinishi natijasida qo'llanila boshlangan. IX asrda yashab ijod etgan Yahyo bin bu Mansurning musiqa nazariyasiga doir asarida muslimon Sharqi xalqlarida yunon musiqasi nazariyasidan oldin ham yerlik xalqlarning o'zi mos musiqa nazariyasi mavjud bo'lganligini aytib o'tadi.

O'zbekistonda "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari", "Farg'ona-Toshkent maqomlari", dutor va surnay maqom turkumlari hamda maqom cholg'u va ashula yo'llari mavjud. Ular hozirgi kunda respublikamizda professional va havaskor maqom ansambllari, sozanda va xonandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. An'anaviy "ustoz-shogird" maktablari vorisiylik asosida avlodidan avlodga o'tib kelmoqda. Bugungi kunda yoshlarni milliy va ma'naviy ruhda tarbiyalash masalasiga bo'lgan

e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunda O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotini rivojlantirish va yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy maqom san'atidan oqilona foydalanish masalasi muhim ahamiyat kashb etmoqda.

Respublikamizning turli burchaklarida havaskorlikning ashula va raqs, ayniqsa, folklor-etnografik ansambllar, oilaviy san'at dastalari kabi shakllari keng tarqalganini va asrlar davomida shakllangan san'at durdonalarini saqlab qolish, xalqimizga qaytarish borasida samarali faoliyat olib borayotganini ta'kidlash zarur. Insonning hayotda kim bo'lib yetishishi jamiyat, unda ustuvor bo'lgan qarashlar va qadriyatlar, ularni singdirish, mustahkamlashga xizmat qiladigan tarbiya tizimiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniy qadriyatlarni tarqatishda ta'lim tizimi muhim va asosiy o'rinni egallaydi. Zero, inson farzandi aynan ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ilmiy asosda va tizimli tarzda o'zlashtirib boradi. Ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli bu jarayondagi tadrijiylik ta'minlanadi. Natijada insonning bilim doirasi ham miqdoriy, ham sifatiy jihatdan boyib boradi. Madaniyat, uning rivojlanish qonuniyatları, inson va jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq bilimlar ta'lim jarayonining o'zida bevosita va to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilishini ham alohida qayd etish joiz. Talim tizimida madaniy qadriyatlarni tarqatish bo'yicha olib boriladigan harakatlarning natijalarini bevosita tekshirib ko'rish va uni doimiy takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud.

Respublikamizda milliy madaniy hayotni boshqarishning o'rni va ahamiyati oshib borayotgani oldimizda turgan bir qator vazifalarni hal etish bilan bog'liq. Milliy madaniy merosimizni eski andozalaru yondashuvlardan xoli holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz yaratgan, ammo turli sabablarga ko'ra chet ellarga chiqib ketgan madaniyat boyliklarini izlab topish va o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli va tadrijiy davom ettirish bilan bog'liq vazifalar shular jumlasidandir. Ayni paytda, musiqa san'ati madaniyatimizning barcha sohalarini jahon madaniyati yutuqlari asosida boyitish va rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarishda o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bularning barchasi o'z navbatida yurt manfaati va millat istiqboli yo'lida qayg'uradigan yangi insonni tarbiyalashdek bosh vazifani hal etishga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash zarur. O'zbek xalqi o'zining boy badiiy merosiga, jahon san'ati rivoji tarixida o'ziga xos o'rniga, dostonchilik va milliy maqom san'atning zamonaviy yo'nalishlari, baxshichilik bo'yicha shakllangan an'ana va maktablarga ega. Ushbu meros va tajribani chuqur va ilmiy asosda o'rganish, rivojlanish istiqbollarini belgilash, mazkur yo'nalishlardagi faoliyatni tizimli tashkil etish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligi shubhasizdir.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Taraqqiyot davomida xalq bastakorlik yo'llari, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq mumtoz musiqasi, shuningdek, folklor – havaskorlik musiqiy merosi kabi shakli va uslubi bilan bir-biriga chambarchas

bog'liq bo'lgan ijrochilik ko`rinishlari bir-birini to`ldirib keldi. Ana shu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviyatimiz ham madaniyatimizning bir jabhasi sifatida namoyon bo`lmoqda. Keyingi to`rt-besh yil ichida bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimiz, unutilayozgan qadrli an'analarimizga bo`lgan e'tibor va ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo`nalish kasb etdi. Davlat miqyosida urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo`lgan hurmat va e'tibor ko`tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, xususan, musiqiy madaniyatni asrab avaylash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida ko'pgina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

Azaldan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo`g'ini hisoblanib kelingan an'anaviy qo'shiqlarimiz, ashulalarimiz, musiqiy madaniyatimiz, maqom ijrolari har doim xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof qilib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham, to'y va marosimlarda qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo`lgan. Zero, bugungi kunitimizda ham o`zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo`lagi bo`lgan, ajdodlarlarimizdan meros bo`lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning hammasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo`lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o`lmas meros bo`lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga qarab qolmasdan, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo`lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Insonlar qalbi, tafakkuri va tasavvurida o`zgarishlar paydo bo`ldi. Yangi O'zbekistonda yangicha qarashlar, yangicha islohotlar va yangicha musiqa madaniyati kirib keldi, desak mubolag'a bo`lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ma'naviy jabhalarning barcha yo`nalishlari o`zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo`ladi. Qolaversa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o`ziga xos o`rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini Mustaqillik mafkurasi tomon yo`naltirish, uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotimizda bugungi kunda shu tamoyilga ko`ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo`liga yo`naltirilgan desak, xato qilmagan bo`lamiz.

Musiqiy madaniyat o`zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o`zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o`zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham ketgani yo`q. U xalq ijodining yuksak namunalari, kuy tuzilishi, folklor ijrochiligi, mazmunan rivojlangan cholg`u va ashula asarlari, murakkab ijrochilik turkum atalmish maqom musiqasi hamda dostonlar ijrochilagini o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o`zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo`sib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o`ringa ega.

XIX asr oxirlariga kelib o`zbek musiqiy madaniyatida o`zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o`lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog`liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o`rganmoq shartdir. Chunki ba`zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta`sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o`ziga xos rivojlanish davri bo`lganligini ham e`tirof etish kerak. Chunki o`lkamizda milliy musiqa san`atimizni ilmiy ravishda o`rganish, nota yozuvining kirib kelishi, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta`sir etdi. Bu borada V. A. Uspenskiy, N. N. Mironov, Ye.Ye. Romanovskaya singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o`tish zarur bo`ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodikov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg`alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo`shdi. Natijada, o`zbek xalq musiqalari, qo`shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jiddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko`rdi. An`anaviy musiqa va qo`shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, odamiylikka, mehr-oqibatga, chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo`qotmagan holda Yangi O`zbekiston farzandlarining musiqiy ongini shakllantirish yo`lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo`lib qolaveradi.

Ilg`or pedagogik texnologiyalarning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat va ularni ta`lim jarayoniga tadbiq etish qanday natija beradi va ta`lim mazmunini takomillashishiga qanday ta`sir ko`rsatadi degan savol har bir fanni o`qitilishida ko`ndalang qo`yilayotganligi bejiz emas. Fan, texnika va axborot uzatish, almashish texnologiyalarini aql bovar qilmaydigan darajada tez va shiddatli rivojlanish jarayoni o`z navbatida ta`lim sohasida ham an`anaviy metodlarni yangicha zamonaviy va interfaol metodlar bilan boyitib borishni taqozo etmoqda. Xo`sh, interfaol, modellashtirilgan metodlar qaysi jihatlari bilan ustunlik kasb etmoqda? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, o`quv jarayonlarini tashkil etish shakl va vositalari, ilgari mavjud bo`lgan o`qitish (Ta`lim) metodlaridan nimasi bilan farqlanadi, uning samarasini nimalarda o`z isbotini topadi va uning monitoringi, baholash tizimi qanday olib boriladi degan savollarga har bir o`quvchi-murabbiy va pedagoglar tayyor bo`lishlari ular oldiga

qo'yilayotgan eng muhim ijtimoiy buyurtma ekanligini anglash va bu savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

"Ta`lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta`limni modernizatsiya qilish bo`yicha belgilangan vazifalarni amalgam oshirishning asosiy me`yoriy, dasturiy xujjatlari bo`lmish o`quv rejalarini namunaviy fan dasturlari, yangi avlod darsliklari, o`quv uslubiy qo`llanmalar ta`lim mazmuni va darajasiga qo`yiladigan talablarni aks ettiruvchi Davlat ta`lim standartlari fan va ta`limning eng so`nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin o`quv jarayoni va uni tashkil etishning moddiy texnik ta`minoti qanchalik mustahkamlanmasin, modernizatsiya qilinmasin, olinadigan pirovard natija oxir oqibat ta`lim jarayonini tashkil etuvchi, dars mazmuni va sifat samaradorligini ta`minlovchi o`qituvchi – murabbiylarning kasbiy bilimi, ko`nikma malakasiga, ijodkorligiga, tashabbuskorligi, pedagogik mahorati va intelektual salohiyatiga, o`quvchilarni fan bo`yicha bilimlarni egallashiga qiziqtira olishi va eng zarur intilish qobiliyatlarini ro`yobga chiqara olish salohiyatlariga bog`liq bo`lib qolaveradi.

Shu narsani ta`kidlash joizki ta`lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini ta`minlash o`quvchi yoki talabaning o`quv mazmunini o`zlashtirishiga yo`naltirilgan o`quv jarayonining to`g`ri, mazmunli, qiziqarli tashkil etilishi, bu jarayonda o`quvchi – talabalarni darsda oddiy tinglovchi emas, mashg`ulotni faol ishtirok etuvchisi, mustaqil top[shiriqlarni bajaruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, o`z fikr mulohazalarini erkin ifoda eta oluvchi, o`z fikrlarini himoya qila oladigan faol shaxsga aylanishi muhim rol o`ynaydi.

Ko`rinib turibdiki ta`lim jarayonini bunday tashkil etish eng avvalo, bo`lg`usi o`qituvchilarni oily dargohlarda kasbga tayyorlash jarayonida inobatga olishni taqozo etadi. Shuning uchun oily ta`limda faoliyat olib boruvchi professor – o`qituvchilar o`zi dars berayotgan fan bo`yicha mashg`ulotlarni texnologiyalashtirilgan shaklda olib borishi, shogirdlarini mazkur faoliyatga tayyorlab borishilozim bo`ladi. Ta`limga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo`yicha amaliy tajribalarni o`rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko`rsatmoqdaki, ta`limning deyarli barcha bo`g`inlarida mashg`ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo`llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg`or pedagogik texnologiya qachon samarali bo`ladi, u o`quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashga, mushohada qilishga yo`naltira olsa. Buning uchun o`qituvchi pedagogik texnologiyani tanlashda dars mavzusi, tuzilishi, o`quvchilarni qiziqishi, agar musiqa darslari bo`lsa ularni nazariy, amliy, ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo`llashiga to`g`ri keladi. Pedagogik texnologiyalarni qo`llashdan ko`zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilarni ko`zda tutadi: Tashkil etish, hamkorlikda ( O`qituvchi va o`quvchi o`zaro munosabatlari ) ishslash, guruh bo`lib, yakka holda ishslash, har bir o`quvchining

faolligini ta`minlash, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nazorat qilish, baholash va hokazo.

Turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari, markazlar, uyushmalar, jamg‘armalar ham mazkur tizimning zaruriy va eng muhim elementi hisoblanadi. Ular bugungi kunda madaniy merosimiz bo‘lgan milliy musiqa san’atini o‘rganish, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf odatlarimizni tiklash, saqlash va rivojlantirish bo‘yicha faoliyat olib borish, folklor ekspeditsiyalari tashkil etish, doimiy ravishda turli festival, ko‘rik, tanlov, ijodiy kechalar o‘tkazish, iqtidorli yoshlar ijodini rag‘batlantirish borasida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, madaniyat jabhasida faoliyat olib borayotgan turli ijodiy tashkilot va birlashmalar aholining madaniy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, milliy madaniyat, adabiyot, san’at, musiqa, teatr, kino yutuqlarini, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni keng targ‘ib etish borasida sermahsul natijalarga erishayotganlarini alohida qayd etish lozim

### **ADABIYOTLAR:**

139. Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании, 1(1), 6-11.
140. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrazalar. *Monografiya*, 1(1), 120.
141. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
142. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.
143. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
144. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.
145. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
146. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
147. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.

148. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place In School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.
149. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.
150. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
151. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.
152. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
153. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
154. Тангиров, И. X., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
155. Axmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). Klaster Mobile DGU 09834.
156. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
157. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
158. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
159. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
160. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.
161. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.